

## MEDIA SAVODXONLIK TUSHUNCHASI VA UNING JAMIYATIMIZ HAYOTIDAGI AHAMIYATI

Jo'rayeva Feruza Baxtiyor qizi

Shahrisabz davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

[jorayevaferuzaasila@mail.ru](mailto:jorayevaferuzaasila@mail.ru)

Hamdamova Gulhayo

Shahrisabz davlat pedagogika instituti Tillar fakulteti O'zbek tili va adabiyoti

yo'nalishi 1-bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10911084>

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada media savodxonlik tushunchasi yoritilgan bo'lib, taniqli olimlarning ushbu tushunchaga bergan ta'riflari qiyosiy tahlil etilgan. Qolaversa, media savodxonlikning jamiyatdagi zaruriyati va ahamiyati haqida ilmiy nazariy qarashlar berilgan. Tahlillarimiz davomida media ta'lim, media o'rganish va media savodxonlik atamalariga keng to'xtalib o'tilgan.

**Abstract:** This article describes the concept of media literacy and compares the definitions given by famous scientists to this concept. In addition, scientific theoretical views on the necessity and importance of media literacy in society are given. In the course of our analysis, the terms media education, media learning, and media literacy were widely discussed.

**Аннотация:** В данной статье описывается понятие медиаграмотности и сравниваются определения, данные этому понятию известными учеными. Кроме того, приводятся научно-теоретические взгляды на необходимость и значение медиаграмотности в обществе. В ходе нашего анализа широко обсуждались термины медиаобразование, медиаобучение и медиаграмотность.

**Kalit so'zlar:** media, OAV, media matn, media ta'lim, media o'rganish, mediasavodxonlik, media makon.

**Key words:** media, mass media, media text, media education, media learning, media literacy, media space.

**Ключевые слова:** медиа, средства массовой информации, медиатекст, медиаобразование, медиаобучение, медиаграмотность, медиапространство.

**Kirish.** Inson ma'lum bir ekologik muhitda xavf-xatarsiz hayot kechirishi uchun avvalo o'sha muhitda yashashning o'ziga xosliklari haqida xabardor bo'lishi zarur. Xuddi shunday zamonaviy inson eng ko'p vaqtini sarflayotgan, hayot kechirayotgan media muhitda xavfsiz yashashi uchun ham u o'zi faoliyat olib borayotgan, hayotiy zarur qarorlar qabul qilishiga ta'sir etayotgan muhitning o'ziga xosliklaridan xabardor bo'lishi ushbu muhitda xavfsiz yashashi uchun muhim zaruratdir. Ayniqsa, bugun mediatizasiya hayotimizga chuqur va tezkor kirib borayotgan, ma'lumotlar hajmi tobora ortib borayotgan yangi global davrga kirib borishimiz jarayonida insonning ishonchli axborotga nisbatan ehtiyoji tobora ortib bormoqda. Fanda axborot texnologiyalaridan foydalanish nihoyatda muhim. Fanda axborot texnologiyalaridan foydalanish, bir tomondan, mamlakatni axborotlashtirish doirasida rivojlanishi, ikkinchi tomondan esa fan, ta'lim, ishlab chiqarish va ijtimoiy sohaning o'zaro yaqin hamkorligini ta'minlashda ahamiyatlidir. Yangi axborot texnologiyalarini joriy etish fan va innovatsiyalar statistikasi, ilmiy tashkilotlar tizimini

tarkibiy o'zgartirish, fanni moliyalashtirish, oliy ta'lim va fan integratsiyasi, baholash kabi jihatlarni o'z ichiga olgan ilmiy-texnik salohiyatning uzluksiz monitoringini tashkil etish imkonini beradi.

Media savodxonlik - odamlarga turli media shakllarini va xabarlarni tahlil qilish, baholash va yaratishga imkon beradigan ko'nikmalar to'plami hisoblanadi. Media savodxonlik iste'molchilarga axborot va ommaviy dasturlarda tashviqot, senzura yoki biron vaziyatni faqat bir tomondan ko'rsatish kabi holatlarga ommaviy axborot vositalarini nima majbur qilayotganligini tahlil qilish, shuningdek, ommaviy axborot vositalarining egasi, ularning moliyalashtirish modeli kabi tarkibiy elementlarni tushunish imkonini beradi. Boshqacha qilib aytganda, media savodxonlik - bu tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini ommaviy axborot vositalari orqali uzatiladigan xabarlar va belgilarga qo'llay olish qobiliyatidir.<sup>1</sup>

Mediasavodxonlik - insonning jamiyatdagi fuqaro sifatidagi mas'uliyatini his qilgan holda faol va savodli bo'lishi, mediamatnlarni qabul qila olishi, yaratishi, tahlil eta olishi va baholashi, zamonaviy mediani ijtimoiy-madaniy va siyosiy mazmunini tushuna olishi demakdir. Media va axborot savodxonligi — «soyabon», ya'ni bir tushuncha mazmunida ikki ma'no birlashgan atama sifatida YuNESKO tomonidan tavsiya etilgan. Uning mohiyatini anglash uchun har bir tushuncha o'zagini bilish zarur. Har bir atamaning mohiyatidan kelib chiqqan holda ularni tavsifi quyidagicha keltiriladi.

Axborot savodxonligi — axborotni tanlash, baholash, qayta ishlash va uzatish borasidagi ko'nikmalarva malakalarmajmuini bildiradi.

Media savodxonlik — mass-mediani qabul qilish va uning faoliyatini baholashbo'yichako'nikmalarva malakalarmajmuini bildiradi. Media savodxonlik media funksiyalarini tushunish, mazkur funksiyalarni amalga oshirish sifatini baholash va o'z-o'zini ifoda etish, shuningdek, ijtimoiy jarayonlarda ishtirok etish uchun medialar bilan ratsional hamkorlikka kirishishga urg'u beradi. Media savodxonlik ham, axborot savodxonligi ham yoshlarda media va axborot makonida foydalanilayotgan texnologiyalardan qat'iy nazar o'zaro hamkorlik qilish ko'nikmalarini ongli ravishda shakllantirish va rivojlantirish bilan bog'liq. Ushbu bir-biriga bog'liq bo'lgan sohani turlicha tushuntirib beruvchi ikkitailmiy maktab mavjud. Birinchi maktab vakillari axborot savodxonligini katta tadqiqotlar sohasi sifatida ko'rishadi. Ikkinchi maktab namoyondalari esa axborot savodxonligi media savodxonlikning tarkibida bo'lib, u ancha keng soha ekanligini ilgari suradilar. Ammo YuNESKOning xalqaro ekspertlar guruhi nafaqat media va boshqa axborot xizmatlarining bir-biridan farqi, balki ularning o'zaro aloqadorlik nuqtalarini hamaniqlagan.

Media va axborot savodxonligi nima uchun kerak?

- Huquqiy demokratik jamiyatimizning to'laqonli, faol fuqarosi sifatida amalga oshirilayotgan islohotlar mazmun-mohiyatini tushinish;
- OAV orqali uzatilayotgan va qabul qilinayotgan kundalik axborotni saralash ko'nikmalarini shakllantirish;
- Axborot orqali inson ongini boshqarishga yo'l qo'ymaslik va har qanday vaziyatda to'g'ri qaror qabul qilish;
- Insonning vizual obrazlar ta'siri ostida ijobiy yoki salbiy tomonga o'zgarishlarini tahlil eta

<sup>1</sup> Cynthia Vinney. „Very well mind“. What Is Media Literacy? (2022-yil 12-yanvar).

olish va vizual xabarlar ostida beriladigan ko‘rinmas ma‘lumotlarni “o‘qiy olish”;

- OAV orqali beriladigan matnli kommunikatsiyalar mohiyatini tahlil etish;
- Axborot qaYerdan, kim tomonidan va nima maqsadlarda uzatilyapti, kimning manfaatlarini o‘zida aks etayapti degan savollarga javob topa olish uchun zarurdir.
- Media va axborot borasida savodxon insonlar quyidagi ko‘nikmalarga ega bo‘ladilar:
- medianing va ular orqali taqdim etilayotgan axborot shakllarining ta‘sirini yaxshi tushunish;
- o‘ylangan va mustaqil qarorlar qabul qilish;
- atrof-muhit haqida yangi ma‘lumot olish;
- umumiylik hissining shakllanishiga ko‘maklashish;
- jamoaviy diskursni qo‘llab-quvvatlash;
- hayoti davomida uzluksiz ta‘lim olish;

Fikrimizcha, media savodxonlik yuqorida bildirilgan fikrlar bilan birgalikda ommaviy axborot vositalari orqali uzatiladigan barcha axborotga tanqidiy qarash, ularga xolis yondoshish va har bir uzatilayotgan axborotni saralashda ongli ravishda yondashish hamdir. Media savodxonlikning maqsadi har bir medianing ustuvorliklari va kamchiliklarini tushungan holda ular tomonidan tarqatilayotgan axborotni saralay bilish va zarurini qabul qilish ko‘nikmalarini shakllantirish bo‘lsa, asosiy vazifasi insonlar tomonidan iste‘mol qilinadigan har qanday axborotning manipulyativ kuchini anglagan holda undan chegaralanishdir. Shuningdek, odamlarga OAV hamda fuqarolik jurnalistika rolini tushunishga yordam berishdir.

Hozirda medianing tahlil etilishi natijasida tilimizga kirib kelayotgan tushunchalar, ya‘ni mediasavodxonlik, mediata‘lim, mediani o‘rganish va boshqalar bir- biri bilan bog‘liq bo‘lsa-da, olimlar ularni mohiyatan bir-biridan farqlashga urinmoqdalar. Fikrimizcha, mediasavodxonlik mediata‘limning uzviy bog‘liq qismidir. Shu bilan birgalikda uning ko‘rinishlari ko‘paymoqda. Bugungi kunda media axborotni qabul qilish, saralash, tahlil etish, baholashda media savodxonlik tushunchasi bilan birgalikda mediata‘lim, mediani o‘rganish, mediamadaniyat tushunchalari ham qo‘llanilayotir. Ular bir-biridan farq qiladimi?

Media ta‘lim:

- media o‘quv dasturida integrallashgan, fanlararo asosida o‘rganilishini;
- «mediamavzu»ni aniq bir fan doirasida tahlil etilishini;
- amaliy ish va tahlil orqali mediaga tanqidiy yondashishni;
- uning shakli, texnologiyalari, axborotni uzatish usullarini o‘rganishni;
- media agentliklarni, ularning ijtimoiy, siyosiy va madaniy rolini o‘rganishni;
- talabaning OAV bilan ishlashini;
- tadqiqot faoliyatini;
- medianing til va san‘at orqali auditoriyaga ta‘sirini o‘rganadi. Mediani o‘rganish (media studies) o‘z navbatida:
- mediani nazariy jihatdan o‘rganishni;
- mediani qiyosiy jihatdan tahlil etishni;
- uning kontseptual tarkibini;
- mediamatnni tahlil etish va uning yaratilish metodikasini;
- ommaviy kommunikatsiya, kinosan‘ati va madaniyatshunoslik fanlarining o‘zaro bog‘liqligini;

– jahon OAVning bir-biriga o‘zaro ta‘sirini o‘rganadi.

Media savodxonlik (media literacy) mediani o‘rganish bo‘lib, media ta‘limning quyidagi natijalariga asoslanadi va o‘z oldiga:

- medianing shaxs va jamiyatga ta‘sirini tushunish;
- ommaviy kommunikatsiya jarayonini anglash;
- mediamatnlarni tushunish va tahlil eta olish;
- media kontekstini tushunish;
- mediamatnlarni yaratish va ularni tahlil etish;
- mediamatnlarni baholashga va ularni saralash vazifalarini qo‘yadi.

### **Xulosa**

Xulosa qilib aytganda bugungi XXI asrda media savodxonligi bo‘lmagan inson jamiyatda o‘z o‘rnini topishi mushkul. Sababi media savodxonlik va texnologiyalar har bir sohani qamrab oldi va bu soha vakillarini bundan xabardor bo‘lishlarini ta‘lab etmoqda. Texnologiyalardan foydalanish, yuqorida aytganimizdek axborotlarning inshonchli yoki ishonchsizligini aniqlashda ko‘maklashadi. Bu esa axborotlar kurashi ketayotgan bir davrda juda muhimdir. Bugungi kunda media, ya‘ni ommaviy axborot vositalari, kino, teatr, san‘atning turlari, madaniyat sarchashmalari, internet orqali uzatilayotgan har qanday ma‘lumot inson ongiga o‘zining ma‘lum bir ta‘sirini o‘tkazib, uning dunyoqarashini o‘zgartirishga sabab bo‘lmoqda. Demak o‘z kasbining ustasi bo‘lmoqchi bo‘lgan inson, zamondan ortda qolmayman deydigan inson, har qanday tomonlama muaffaqiyatga erishmoqchi bo‘lgan har bir inson media savodxonligi bo‘lishi lozim.

### **References:**

1. Sadikovich, H. M. THEORETICAL FOUNDATIONS FOR THE FORMATION OF PROFESSIONAL COMPETENCE OF FUTURE MILITARY SPECIALISTS IN THE UNIVERSITY.
2. Uktamov, M. "Modeling the professional training development of future teachers through computer training." Science and innovation 2.B9 (2023): 139-141.
3. Israilovich, D. O., & Komilovna, T. L. (2022). Optimization of Validity of Text Information Based On Mechanisms with Soft Clustering. EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION,2(2), 369-373.
4. Турсунова, Л., & Жураев, С. (2024). ЭФФЕКТИВНЫЕ МЕХАНИЗМЫ ПОВЫШЕНИЯ КАЧЕСТВА ОБРАЗОВАНИЯ. Педагогика и психология в современном мире: теоретические и практические исследования, 3(2), 35-37.
5. Musurmanova, Yayra, and Jasmina Toshpo'lotova. "Iqtisodiyotni raqamlashtirish sharoitida iqtisodiy jarayonlar va moliyaviy munosabatlarning transformatsiyasi." Nashrlar (2024): 38-41.
6. Musirmonov, Shohboz, and Jasmina Toshpo'lotova. "Innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirishda moliyaviy texnologiyalarning o'rni." Nashrlar (2024): 378-380.
7. Musirmonov, Shohboz, and Jasmina Toshpo'lotova. "Moliya bozorini rivojlantirishda yashil iqtisodiyotga o'tishining muammolari va yechimlari." Nashrlar (2024): 374-377.
8. Shukurullo Fayzullo o'g'li, Aliqulov. "TA 'LIMDA MULTIMEDIYA TEXNOLOGIYALARINI QO'LLASH." PEDAGOGS 50.2 (2024): 51-55.
9. Shamsiddinov G'iyosjon Husniddin o'g'li. Chiziqli dasturlash nazariyasi usullari. Buxoro davlat pedagogika instituti "fizika, matematika va information texnologiyalarning innavatsioan

rivojlanishdagi o'rnini" Respublika ilmiy-nazariy anjumani. 2023/12/22.№1 Том 1 ст-59-53

10. Шамсиддинов Фиёсжон Хусниддин ўғли. Стерженда иссиқлик манбаларини оптимал жойлаштиришнинг стационар масаласини сонли ечиш "O'zbekiston Milliy universiteti talabalar va ilmiy-tadqiqotchilarining ilmiy konferensiyasi" O'zbekiston
11. Sevinch, Maslaidinova. "Virtual laboratoriyalar va ularning o'qitish jarayonidagi ahamiyati." *PEDAGOGS* 53.1 (2024): 196-200.
12. Кодиров, Фаррух. "ZAMONAVIY KOMPYUTER O'YINLARI VA ULARNING SINFLANISHI." *Scienceweb academic papers collection* (2019).
13. Qodirov, Farrux. "O'ZGARUVCHILARI AJRALGAN VA AJRALADIGAN DIFFERENSIAL TENGLAMALAR." *Journal of Advanced Research and Stability* (2022).
14. Ergash o'g'li, Qodirov Farrux. "Sonli qatorlar.(musbat hadli qatorlarning yaqinlashish teoremlari. leybnis teoremasi, absolyut va shartli yaqinlashish.) 2022/2/17." *Ta'lim va rivojlanish tahlili onlayn ilmiy jurnali* *страницы*: 137-151.
15. Tulqin o'g'li, Usmonov Maxsud, and Qodirov Farrux Ergash o'g'li. "SONLI QATORLAR.(MUSBAT HADLI QATORLARNING YAQINLASHISH TEOREMALARI. LEYBNIS TEOREMASI, ABSOLYUT VA SHARTLI YAQINLASHISH.) 2022/2/17." *TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI* *страницы*: 137-151.
16. Ergash o'g'li, Qodirov Farrux. "O'zgaruvchilari ajralgan va ajraladigan differensial tenglamalar/Barqarorlik va yetakchi tadqiqotlar onlayn ilmiy jurnali." (2022): 20.
17. Ergash o'g'li, Qodirov Farrux. "Stoks Formulasi. Sirt Integrellari Tadbiqlari/Ijtimoiy fanlarda innovasiya onlayn ilmiy jurnali." (2022): 15.
18. Qodirov, Farrux, Muxlisa Mavlonova, and Sevinch Negmatova. "MEXATRONIKA VA MASHINASOZLIKDA SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINING O'RNINI VA AHAMIYATI." *Прикладные науки в современном мире: проблемы и решения* 3.3 (2024): 4-6.
19. Tulqin o'g'li, Usmonov Maxsud, and Qodirov Farrux Ergash o'g'li. "Communication Control Systems, Methodology." *World* 1 (2022).
20. Ergash o'g'li, Qodirov Farrux. "IMPORTANCE OF KASH-HEALTH WEB PORTAL IN THE DEVELOPMENT OF MEDICAL SERVICES IN THE REGIONS." *Conferencea* (2022): 80-83.
21. Ergash o'g'li, Qodirov Farrux. "CREATION OF ELECTRONIC MEDICAL BASE WITH THE HELP OF SOFTWARE PACKAGES FOR MEDICAL SERVICES IN THE REGIONS." *Conferencea* (2022): 128-130.
22. Qodirov, Farrux, Muxlisa Mavlonova, and Sevinch Negmatova. "ROBOTOTEXNIKADA SUN'IY INTELLEKTDAN FOYDALANISH USLUBLARI VA UNING BUGUNGI KUNDAGI AHAMIYATI." *Инновационные исследования в современном мире: теория и практика* 3.3 (2024): 47-50.
23. Berdiyeva, Gulnoza. "INFORMATIKA VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI FANINI OQITISHDA MASOFAVIY TALIM TEXNOLOGIYALARINING AHAMIYATI Gulnoza Berdiyeva, Qarshi davlat universitetining Pedagogika instituti oqituvchisi."